



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 133 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	



O'ZBEKISTONDA XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLARNING YASHIL MOLIYALASHTIRISH JARAYONIDAGI ROLI VA STRATEGIK YO'NALISHLARI

Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tayanch doktranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida xalqaro moliyaviy institutlarning O'zbekistondagi loyihalarga ajratgan grantlari va texnik yordam dasturlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda yashil moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va ekologik barqarorlikka ta'siri baholanadi. Xalqaro institutlar tomonidan taklif etilgan strategik yo'nalishlar uglerod neytrallikka erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish kabi yo'nalishlar o'rganiladi. Ish natijalariga asosanib, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yashil moliyalashtirish, xalqaro moliyaviy institutlar, ekologik investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, yashil obligatsiyalar, iqlim o'zgarishi, moliyaviy barqarorlik, uglerod neytralligi, strategik yo'nalishlar, ekologik risklarni boshqarish.

Abstract: The article analyzes grants and technical assistance programs allocated by international financial institutions for projects in Uzbekistan within the framework of the development of a green economy in the Republic of Uzbekistan. The study will assess the implementation of green financing mechanisms in Uzbekistan, their impact on socio-economic efficiency and environmental stability. Strategic directions proposed by international institutions are being explored, such as achieving carbon neutrality, expanding renewable energy sources and developing a green bond market. Based on the results of the work, practical recommendations were developed to improve the green financing policy in Uzbekistan and develop effective cooperation with international financial institutions.

Key words: Green finance, international financial institutions, green investments, renewable energy, green bonds, climate change, financial stability, carbon neutrality, strategic directions, environmental risk management.

Аннотация: В статье анализируются гранты и программы технической помощи, выделяемые международными финансовыми институтами на проекты в Узбекистане в рамках развития зеленой экономики в Республике Узбекистан. В ходе исследования будет оценено внедрение механизмов зеленого финансирования в Узбекистане, их влияние на социально-экономическую эффективность и экологическую стабильность. Изучаются стратегические направления, предложенные международными институтами, такие как достижение углеродной нейтральности, расширение возобновляемых источников энергии и развитие рынка зеленых облигаций. По результатам работы разработаны практические рекомендации по совершенствованию политики зеленого финансирования в Узбекистане и развитию эффективного сотрудничества с международными финансовыми институтами.

Ключевые слова: Зеленые финансы, международные финансовые институты, экологические инвестиции, возобновляемые источники энергии, зеленые облигации, изменение климата, финансовая стабильность, углеродная нейтральность, стратегические направления, управление экологическими рисками.

KIRISH

Bugungi kunda iqlim o'zgarishining keskinlashuvi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati va ekologik xavfsizlik masalalari global miqyosda eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil moliyalashtirish konsepsiyasi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarda xalqaro moliyaviy institutlarning roli beqiyosdir.



Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi institutlar tomonidan ajratilayotgan kreditlar, grantlar va texnik ko'maklar mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tishida muhim moliyaviy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-son¹ qarori muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi². Yuqoridagi vazifalarni ta'minlashda mazkur maqola ma'lum darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

T.V.Vashalovanning "Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие" nomli qo'llanmasida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;
- uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog'liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;
- katta multiplikativ samaraga ega bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo'llash;
- past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonida uglevodorodga bog'liqlikni qisqartirish.

Yuqorida qayd etilganidek, jahonda "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish tashabbusi 2008-yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo'lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

ekologiya bilan bog'liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish; "Yashil" ishchi o'rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta'minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmidan foydalanish.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R.Lindal va J.R.Xikslar asos solishgan (D.B.Smirnov (2015)). Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o'zaro o'rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi.

Atrof muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida "Yashil iqtisodiyot" tushunchasi shakllana boshlagan. Ilk bor "Yashil iqtisodiyot" atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejası" deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotda qo'llanilgan³.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda "Yashil iqtisodiyot"-bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining

¹ <https://lex.uz/docs/-4539502>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4-oktyabrdagi "2019—2030-yillar davrida

³ Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp



yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan⁴.

Iqtisodiy fanlar doktori, professor M.Pardayevning fikricha, “Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir⁵.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “Yashil iqtisodiyot” nazariyasi, tamoyillari yoki “Yashil iqtisodiyot” siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashil energiya konsepsiyasi so'nggi o'ttiz yillikdan beri butun dunyo uchun strategik barqaror energiya shakllanishi jarayoni sifatida dolzarb masalaga aylangan hamda butun dunyo mamlakatlarining birinchi darajali barqaror iqtisodiy rivojlanish tizimiga o'tish uchun katta qiziqish uyg'otdi. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, Yashil energiya iqtisodiyotdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan, barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotchilar ushbu sohada ko'plab barqaror rivojlanish muammolarining ko'p o'lchovlarini tushuntirish uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda hamda iqtisodiy rivojlanishning yangi mexanizmlariga aniqlik kiritilmoqda. Sanoat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishni ta'minlash butun dunyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy strategiyalaridan biri hisoblanadi. Bu mexanizmlar barqarorlikka erishish uchun katta miqdorda energiya sarfini talab qiladigan jarayondir. Shunga qaramay, bunday tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda va havoda zaharli gazlar konsentratsiyasini oshirish hisobiga inson salomatligiga va ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyatni qayta ko'rib chiqish va qayta loyihalash jarayonida eski jarayonlarni ayblash yoki voz kechish shart emas – ular katta taraqqiyotni, o'sha paytdagi katta o'zgarishlarni, jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z faoliyatini olib borgan. Bugungi kunda barqaror rivojlanish mexanizmini to'g'ri tanlanganligi juda muhimdir, chunki tadqiqot metodologiyasi har qanday tadqiqotda doimo asosiy o'rinni egallaydi. Noto'g'ri tanlangan tadqiqot metodologiyasi butun ishga zarar etkazishi va tadqiqot jarayonini sekinlashtirishi mumkin. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish “Yashil loyihalar”ga hayotiylik sikli davomida qo'shimcha investitsiyalar jalb etishni talab etadi. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari “Yashil loyihalar”ni davlat tomonidan moliyalashtirish amaliyotidan sohaga xususiy investorlarni faol jalb etish amaliyotiga o'tishga harakat qilishmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda energiya bilan bog'liq ikkita muammo barqaror rivojlanish darajasiga bevosita bog'ligini ko'rish mumkin. Birinchisi, atrof-muhitga ta'siri past va emissiya quvvati past bo'lgan energiya ta'minotini barqaror tarzda qanday ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi – barqaror energiya rivojlanishiga to'siqlarning yuqoriligi va bunday to'siqlarni hal qilishning eng samarali usulini aniqlashdir. Barqaror rivojlanish darajasini o'ttirish yuzasidan barqarorlik maqsadlari va qadriyatlariga mos kelishi kerak bo'lgan tarzda qayta qurish rejasi ishlab chiqilmoqda.

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirishning an'anaviy va noan'anaviy manbalari. “Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish dastaklarining keng tarqalgan turlaridan biri “yashil obligatsiyalar” hisoblanadi. “Yashil obligatsiyalar” ilk marta Yevropa investitsiya banki tomonidan emissiya qilingan bo'lib, ular bu vaqtda “Iqlimni muhofaza qilish obligatsiyalari”, keyinchalik “Iqlim obligatsiyalari” va hozirgi vaqtda esa umumlashtiruvchi nom bilan “Yashil obligatsiyalar” deb atala boshlandi. Qarz oluvchi obligatsiyani muddati davomida foizlari bilan so'ndiradi. “Yashil obligatsiyalar”ning boshqa obligatsiyalardan farqli jihati shundaki, jalb etilgan mablag'lar tiklanadigan energiya, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza transport yoki issiqxona gazlarini chiqarish hajmini qisqartirish bilan bog'liq loyihalarga sarflanadi. Dastlab turli mamlakatlarda ekologik loyihalar uchun mablag'lar jalb etish uchun qimmatbaho qog'ozlar emissiya qilingan bo'lsa-da, moliyaviy resurslarni xarajat qilish yo'nalishlari muayyan turdagi obligatsiyalar chiqarish bilan bog'lanmagan. 2008-yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki shu turdagi qimmatbaho qog'ozlarni “Yashil obligatsiyalar” nomi bilan chiqardi. Bank mutaxassislari chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish

4 Навстречу “Зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17

5 <https://zarnews.uz/ma'lumotlari>



lozim bo'lgan loyihalarni ekologik mezonlarga qanchalik javob berishini aniqlash maqsadida norvegiyalik ekolog mutaxassislarni taklif etishdi. "Yashil loyihalar" barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda quyidagi yo'nalishlar va obyektlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval. "Yashil loyihalar"ni investitsiyalash yo'nalishlari⁶.

Investitsiyalash sohasi	Investitsiyalash obyektlari	Investitsiyalash maqsadi
Yadro energiyasi	Elektrenergiya va isitish	Past uglerodli, energiya samaradorligi yuqori energiya manbalaridan foydalanish
Gidroenergetika		
Shamol energiyasi		
Geotermal energiya		
Bioenergetika		
Atmosfera	"Aqlli" filtrlar	Atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdori va xavfini kamaytirish
	Past uglerodli obyektlar	
Suv resurslari	"Aqlli" tozalash inshootlari	Suvga chiqarilayotgan chiqindilar miqdori va xavfini kamaytirish
	Chiqindilarni biokimyoviy usullar bilan yo'qotish	
Issiqxona samarasi	Ishlab chiqarishning past uglerodli usullari	Issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish
	Tozalash inshootlari	
	Ozon qatlami kengayishining oldini olish	
Elektrenergiya iste'moli	Tejamkor energiya resurslari	Energiya iste'moli miqdorini kamaytirish
Suv iste'moli	Suv resurslarini tejab iste'mol qiluvchi obyektlar	Suv iste'moli miqdorini kamaytirish
Quruqlik obyektlaridan foydalanish	Yer resurslaridan oqilona foydalanish	Yer, o'rmon va tog' resurslari iste'molini qisqartirish
	O'rmon resurslaridan oqilona foydalanish	
	Tog'-kon faoliyatining salbiy oqibatlarini kamaytirish	
Transport va tashish	Transport uchun past uglerodli xom ashyo ishlab chiqarish	Logistikadan foydalanish koeffitsiyentini oshirish va atmosferaga chiqindilar chiqarishni kamaytirish
	Ekologik optimal logistika zanjiri	
	Yoqilg'i resurslaridan oqilona foydalanish	
IT va telekommunikatsiya	Sovutish tizimini takomillashtirish	Axborot xizmatlari va uskunalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish
	Energiya iste'molini qisqartirish	
Sanoat infratuzilmasi	Infratuzilma obyektlarini zamonaviy ekologik talablarga moslashtirish	Infratuzilma obyektlarining ekologik samaradorligini oshirish
	Infratuzilma obyektlarida resurslardan foydalanishni optimallashtirish	

Mutaxassislar fikricha, "Yashil loyihalar"ga jalb etilayotgan davlat va xususiy investitsiyalar nisbati 1:5 nisbatda bo'lishi zarur. Xitoyda esa ichki "Yashil loyihalar"ni moliyalashtirishda 10–15% davlat budjeti mablag'lari va 85–90% xususiy mablag'lardan foydalanish qoidasiga amal qilinadi. Shuning uchun xususiy investitsiyalarni "Yashil loyihalar"ga jalb etishdagi risklarni an'anaviy loyihalarni moliyalashtirishda duch kelinadigan risklar darajasiga qadar minimallashtirish maqsadga muvofiq. Dunyo amaliyotida xususiy investitsiyalarni "Yashil loyihalar"ga jalb etishni rag'batlantirishning turli usullari va dastaklaridan keng foydalaniladi (2-jadval).

⁶ Manba: Rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



2-jadval. “Yashil loyihalar”ni moliyalashtirish maqsadida xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlash dastaklari va usullari⁷.

Qo'llab-quvvatlash choralari	“Yashil loyihalar”ni moliyalashtirish dastaklari va usullari	
Davlat tomonidan tartibga solish	Dastaklari	Soliq imtiyozlari
		Standartlarni joriy etish
		Atrof-muhitga zarar keltiruvchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashdan voz kechish
	Usullari	Imtiyozli tariflar
		Tiklanadigan energiya uchun kvotalar
Davlat tomonidan moliyalashtirish	Dastaklari	Grantlar
		Subsidiyalar
		Ekologik dasturlar
Kreditlash	Dastaklari	Loyihaviy moliyalashtirish
		Qarz fondlari
		“Yashil” obligatsiyalar
	Usullari	Imtiyozli kredit stavkalari
Risklarni pasaytirish	Dastaklari	Kredit kafilligi va kafolatlar
		Sug'urtalash
		Ayirboshlash kursi va foiz stavkasining volatilligidan himoyalash

“Yashil loyihalar”ni investitsiyalashda soliq imtiyozlarini joriy etish emitentlar va investorlar uchun iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan jozibador hisoblanadi. Amaliyotda emitentlar va investorlar uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining quyidagi turlari mavjud:

soliqqa tortiladigan kreditli obligatsiyalar. Obligatsiyalarning ushbu turi investorlar foiz to'lovlari o'rninga soliqqa tortiladigan kredit olishlarini, shu sababdan emitentlar obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lamasliklarini bildiradi.

bevosita subsidiyalanadigan obligatsiyalar. Emitentlar o'z sof foiz to'lovlarini subsidiyalash uchun hukumatdan pulli chegirmalar olishadi;

soliqqa tortilmaydigan obligatsiyalar. Investorlar “yashil obligatsiyalar”dan olinadigan foizlardan daromad solig'i to'lashmaydi.

Misol uchun, Braziliyada shamol energiyasi bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish soliqlardan ozod qilingan;

davlat tomonidan talabni rag'batlantirish orqali “Yashil obligatsiyalar” bozorini rivojlantirish;

davlat ijtimoiy jamg'armalarida “Yashil loyihalar”ga investitsiya sarflashga kvota ajratish. Davlat pensiya va ijtimoiy ta'minot jamg'armalari mablag'larining muayyan qismini qayd etib qo'yilgan daromadga ega “yashil obligatsiyalar”ga yo'naltirishga ruxsat beradi;

banklar tomonidan “Yashil loyihalar”ni investitsiyalashga mablag'lar ajratishni kvotalash.

Global miqyosda yashil moliyalashtirishni amalga oshirish 15 yildan ziyod vaqtdan buyon rivojlanib kelmoqda hamda arzon va toza energiya, shaharlar, aholi punktlari barqarorligi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi. Seminar davomida yashil moliyalashtirishning mavjud mexanizmlari tahlil qilindi, O'zbekistonda iqlimga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun moliyalashtirish modellarini ishlab chiqishga innovatsion yondashuvlar muhokama qilindi.

Ko'rib chiqilgan muammolarni o'rgangan holda, yurtimizda olib borilayotgan investitsion siyosatning aynan ekologiyani yaxshilashga qaratilgan dasturlari tahlilini amalga oshirdik va ular bo'yicha atroflicha yondashuv va fikrlarni taqdim etamiz. Bunda biz neft qazib chiqarish va uning atrofga yetkazadigan zararlari va oqibatlariga to'xtalamiz. Olingan ma'lumotlarni esa muqobil elektr stansiyalarning yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlari, ularga kiritilgan investitsiya hajmlari va samaradorliklari bilan taqqoslab, tegishli xulosalarni beramiz.

Insonning barcha faoliyati orasida qazilma yoqilg'ining yonishi yer biosferasida uglerodning doimiy to'planishiga eng katta hissa qo'shadi. Xalqaro energetika agentligi va boshqalarning ta'kidlashicha, neft va gazdan foydalanish rekord darajadagi 63% (19 milliard tonna) dan 43,4 milliard (BT) CO₂ atmosferaga 2019 yil davomida barcha energiya manbalaridan chiqarilgan. Jami emissiya deyarli har yili 2.1% yuqorilamoqda.


7 Manba: Rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



Har yili u yoki bu sabablarga ko'ra dunyo okeaniga 2 dan 10 million tonnagacha neft tashlanadi. Sun'iy yo'ldoshlardan olingan aerofotosuratlar okean yuzasining deyarli 30% neft plyonkasi bilan qoplanganligini qayd etdi. Bir litr neft 40 ming litr dengiz suvini kisloroddan mahrum qiladi. Bir tonna neft 12 km² okean yuzasini ifloslantiradi.

Masalaning boshqa tomonida esa ular berayotgan ekologik zararlar ham turadi.

Endi so'zimizni ekologiyaga eng kam miqdorda zarar beruvchi hamda dunyo hamjamiyati tomonidan ilgari surilayotgan "Yashil" energetika bilan davom ettiramiz va qarama-qarshilikning natijalarini tahlil qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tomonidan yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlari.

Yuqorida keltirilgan 2019–2023-yillar oralig'idagi "Yashil" energetika manbalari orasida eng kichik raqamlar shamol energiyasiga to'g'ri kelmoqda va qolganlariga taqqoslaganda eng past o'sish ko'rsatkichlariga ega. Tahlil qilingan 5 yil oraliqda shamol energiyasi qiymatlari 5-15 mln kv\soat energiyani tashkil etgan. QES loyihalari bir qadar istiqbolli bo'lgani uchun Xitoy, BAA, Yaponiya davlatlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar 2021-yilda qayd etilgan 49 mln kv\soat elektr energiyasini 2023-yilga kelib qariyb 10 barobarga oshishiga sabab bo'ldi. Hidro energetika esa avvaldan eng samarali va tashkil etish osonligi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ham GES larda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining yuqori hajmlarini ta'minlab turibdi va kuzatuv olib borilgan 5 yil ichida 1900 megavattlik ko'rsatkichdan 2400 megavattlik pog'onaga chiqqanini ko'rib turibmiz.

Demak, O'zbekistonda aholi soni va tashkil etilayotgan korxonalar sonining yildan yilga oshib borishi elektr energiyaga bo'lgan talabni va o'z navbatida atrof-muhitga yetadigan zarar miqdorini o'sib borishiga turtki bo'ladi. Kun sayin o'sib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimizda ham ana shunday ishlarning xususiy kapital hamda davlat sherikchiligidan olib borilayotganini e'tirof etishimiz lozim. "Yashil" moliyalashtirishning ahamiyati oshib borayotgan hozirgi kun iqtisodiyoti barqaror rivojlanishni aynan mana shu "Yashil" loyihalarda ko'rmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim.



Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, ularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish.

Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Tadqiqotlarimiz doirasida quyidagi takliflarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Milliy «Yashil moliyalashtirish strategiyasi» ishlab chiqilsin, bunda xalqaro institutlar bilan hamkorlik, ekologik mezonlar, monitoring tizimlari va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari nazarda tutilsin.

Xalqaro institutlar bilan uzoq muddatli sheriklik memorandumlarga asoslangan aloqalar kengaytirilsin va sohalar bo'yicha (energetika, transport, qishloq xo'jaligi) maxsus "Yashil fond"lar tashkil etilsin.

Milliy bank tizimida yashil kreditlar liniyalari yo'lga qo'yilsin, bu borada xalqaro institutlar bilan hamkorlikda maxsus kreditlash standartlari ishlab chiqilsin.

Mahalliy investorlar va tadbirkorlar uchun yashil loyihalarga subsidiya va soliq imtiyozlari taklif etilsin.

Yashil moliyalashtirish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlansin — bu borada xalqaro institutlar bilan akademik hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali xalqaro moliyaviy oqimlardan kengroq foydalanish imkoniyati yaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.
3. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.
4. Козин М. Н. Динамическая модель оценки производственно-экономической устойчивости оборонного предприятия / М. Н. Козин // Аудит и финансовый анализ. — Москва, 2017. - №4. — с. 24–31.
5. Плешков С. Ю. Разработка механизма повышения уровня экономической устойчивости деятельности строительного предприятия / С. Ю. Плешков.: Автореф. дис. канд. экон. наук. - Екатеринбург, 2018. — с. 18.
6. Global Trends in Renewable Energy Investment 2020, Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF. 2020
7. Climate Bond Initiative ma'lumotlari asosida tayyorlangan
8. Adams JS, Victorine R (2011) Permanent conservation trusts: a study of the long-term benefits of conservation endowments. Conservation Trust Funds
9. Avato P, Coony J (2008) Accelerating clean energy technology research, development, and deployment. World Bank, Washington, DC,
10. Яруллина, Г. Р. Динамическая модель мониторинга устойчивого экономического развития промышленного предприятия / Г. Р. Яруллина // Аудит и финансовый анализ. - 2018. - № 6. — с.195–202.
11. Bell LA, Freeman RB (2001) The incentive for working hard: explaining hours worked: differences in the US and Germany. Labour Econ 8:181–202,
12. Brown LR (2011) The new geopolitics of food. Foreign policy. The FP Group, Washington, DC,
13. Costanza R, Farley J (2010) What should be done with the revenues from a carbon cap and auction systems? Solutions 1:33, Coy P (2012) The other U. S. energy crisis: lack of R&D: R&D neglect is holding back innovative energy technologies. Bloomberg Businessweek. New York: Bloomberg L. P, Daly HE (2008)
14. Vaxabov A. V., Fayzullayev J. N. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha xalqaro va milliy dasturlar // "Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar" ilmiy-metodologik va ilmiy-uslubiy jurnal, 2019 № 3 (iyul-sentabr) 39–50 bet,
15. Xamrayeva S. N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Monografiya. — T.: Iqtisod-Moliya, 2017. — 256 b,
16. Чебанов С. "Зеленая" экономика: роль суверенных фондов. // Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2019. С. 11
17. <https://about.bnef.com/blog/sweden-spain-the-cheapest-european-markets-for-wind-and-solar-corporate-ppasbnef-survey-finds>
18. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik –T. "Universitet" 2020y. 31 bet.
19. Т.В. Захарова "Зеленая" экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16), 2011.



20. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО "Издательство "Экономика", 2007. - 295 с.
21. Xaitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. –T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b
22. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
